



O'QUVCHILARDA MUSTAQIL ISHLASH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK MEXANIZMLARI

N.E. Ergasheva

Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi

Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lif

metodikalari kafedrasi katta o'qituvchisi

Tel: +998975240075

El. pochta: nigora1ergasheva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqil ishlar, mustaqil ishlashning ahamiyati, o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatishda interfaol usullardan foydalinishning turli usullari haqida gap ketgan. Mustaqil fikrlash boshlang'ich sinf o'quvchilarida XXI asr ko'nikmalarining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etishi haqidagi ma'lumotlar maqola mazmunining oshishiga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: mustaqil ishlar, interfaol usullar, kichik guruhlar, ta'lif-tarbiya, ko'nikmalar, faoliyat.

Har bir o'qituvchining bosh maqsadi o'qituvchiik mahorati bilan o'z individualligini yorqin namoyon etish, interfaol ta'lif vositasida mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirish, uning sifatida oldindan o'quvchilarning ta'lif-tarbiya samaradorligini ko'ra bilishdan iborat.

Bir qator mutaxassislarning fikricha o'quv adabiyotlari tanqidiy mulohaza yuritishga imkoniyat yaratuvchi vosita bo'lishi kerak. Har bir fan ma'ruzalari muammoli tarzda bo'lishi bilan tanqidiy asosda o'qitilishi o'quvchilarning o'rganishga, shuningdek tanqidiy fikr yuritilgan o'quv adabiyotlarga bo'lgan qiziqishini orttiradi, ular qator fikrlar asosida o'z fikrini mustahkamlashga harakat qiladi, ma'ruza o'qigan O'qituvchi bilan muloqot qilish uchun intiladilar, o'z fikr-mulohazalarini ifoda qilish yo'llarini topadilar. Demak, o'quvchi o'z bilimini tanqidiy fikrlar asosida oshirib boradi va har qanday holatda ham fikr-mulohaza yuritish qobiliyatini namoyon etadi.

Darsliklarda berilgan matn, mashq va masalalarni illyustrativ materiallar, jadvallarni tanlash, o'quv-biluv faoliyatini boshqarish, ya'ni dars jarayoniga rahbarlik qilish, darslik materiallari vositasida o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalari, egallagan shaxsiy sifatlarini nazorat qilish mexanizmini ishlab chiqish lozim.

Faqatgina samarali tashkil etilgan ta'lif jarayonigina o'quvchida o'quv muammosini mustaqil hal qilish ko'nikmasini rivojlantirish va o'rganilayotgan bilimlar yuzasidan kelib chiqqan muammolarni ijodiy yechish imkoniyatini yaratadi. [1]

Shuning uchun ham biz bugungi kunda zamonaviy ta'limming vazifasi, maqsadi, o'rni va rolini yaqqol tasavvur qila olishimiz kerak. Hozirgi vaqtida qo'llanilayotgan o'quv-tarbiya jarayonida "mustaqil ta'lif" tushunchasining mohiyati to'g'ri anglangandagina maqsadni to'g'ri qo'yish mumkin. Ba'zan mustaqil holda o'qish va mustaqil ta'lif tushunchalarini adashtiriladi. Mustaqil holda o'qish rasmiy o'quv jarayonidan tashqarida kechishi mumkin, ya'ni muayyan ta'lif muassasiga bormay turib, uyda o'zi o'quv materiallari asosida mustaqil, individual holda o'qishi va o'rganishi mumkin.

N. Muslimovning fikricha mustaqil ta'lif-bilimlarni o'zlashtirish, tasavvurlarini rivojlantirish tushunchalari, ko'nikma va malakalarni hosil qilish bo'yicha o'quv jarayonining sub'yektiv maqsadiga muvofiq muntazam, mustaqil hamda avtonom faoliyatni tashkil etish demakdir. [2]

Mustaqil ta'lif-belgilangan o'quv topshiriqlarini ta'lif oluvchilarning mustaqil va ijodiy bajarishlari asosida o'tadigan o'quv faoliyatidir. Mustaqil ta'lif negizini mustaqil ishlar tashkil etadi. Biz mustaqil ta'lifni O'qituvchiik tamoyillarga asoslanib tashkil etish kerak, deb o'ylaymiz. Masalan, o'quvchilarning ongliligi va faolligi tamoyili o'qitishni shunday tashkil etishni nazarda tutadiki, bunda o'quvchilar ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo'llash metodlarini ongli va faol egallab oladigan, ularda ijodiy tashabbuskorlik, o'quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, nutq rivojlanadigan bo'lsin.



O'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishslash faoliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarni samarali tashkil etish o'quv jarayonining muhim omillaridan biri bo'lib hisoblanadi. Mustaqil va ijodiy ishslash jarayonida o'quvchida mustaqil fikrlash qobiliyatining rivojlanishi, o'quvchida jarayonlar va hodisalar, ob'yektlar haqida bilimlarni tizimlashtirish ularni chuqur o'rganish hamda tegishli qarorlar qabul qilish, nazariy bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmalarini shakllanadi.

O'quvchilarining mustaqil va ijodiy ishslash qibiliyatlarini shakllantirish hamda rivojlantirishda mustaqil ishlarning ahamiyati juda katta.

Mustaqil ishlar o'quvchining umumiy rivojlanishiga va kasbiy mahoratini o'stirishga xizmat qilishi kerak. Shuningdek o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlarni tashkil qilish tarbiyaviy, ta'limiya ahamiyatga ham ega bo'lishi kerak. Tarbiyaviy ahamiyati shundaki, o'quvchi o'z bilimini oshirish va mustahkamlash uchun o'zini-o'zini tarbiyalab boradi. Ta'limiya ahamiyati esa bo'sh vaqtadan samarali foydalangan holda o'quvchida mustaqil bilim olish jarayonining shakllanishiga olib keladi.

O'quvchilarning mustaqil ishlarni samarali tashkil etish va boshqarish o'quv jarayonining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Mustaqil va ijodiy ishlarning turlari, shakllarini tanlashda "oddiydan-murakkabga" hamda "umumiyanususiyga", "mavhumdan-aniqlikka" tamoyillariga amal qilish lozim. Mustaqil va ijodiy ish topshiriqlarini ishlab chiqishda har bir o'quvchining shaxsiy imkoniyatlari, tushunuvchanlik, o'quv materialimi o'zlashtirish darajasi inobatga olinishi, shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Mashg'ulotlarda o'quvchilarning ijodiy ishslashiga ahamiyat berish kerak. O'qituvchi o'quvchi bajaradigan mustaqil ishlarning hajmini aniqlab, bajarish uchun ularga aqliy mehnat qilish yo'llarini o'rgatadi hamda ishni bajarish jarayonida kelib chiqadigan kamchiliklar va xatoliklar bo'yicha ko'rsatmalar beradi. Masalan:

O'quvchilarda suv havzalarining xususiyatini bilish va farqlash bo'yicha "Toifalash jadvali" treninggi o'tkaziladi.

Toifalash sharhini tuzish qoidasi: Toifa-xususiyat va munosabatlarning muhimligini namoyon qiluvchi (umumiy) malumot.

Ajratilgan alomatlar asosida olingan ma'lumotlarni birlashtirishni ta'minlaydi. Tizimli fikrlash, ma'lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

1. Toifalar bo'yicha ma'lumotlarni taqsimlashning yagona usuli mavjud emas.
2. Bitta mini guruhda toifalarga ajratish boshqa guruhda ajratilgan toifalardan farq qilishi mumkin.
3. Ta'lim oluvchilarga oldindan tayyorlab qo'yilgan toifalarni berish mumkin emas bu ularning mustaqil tanlovi bo'ladi.

Misol (namuna):

Toifalash jadvali

Suv havzalari		
Buloq	Suv ombori	Daryo
Buloq -yer ostidan sizib chiqadigan suv. Ko'rnishi ba'zan sokin, yoki favvoradek otilib chiqadi. Shifobaxsh mineral suv buloqlar ham bor.	Suv omborlari - insonlar tomonidan yaratilgan sun'iy suv havzalaridir. Daryo suvlarini tartibga solish, yozda sug'orish, bahor, kuz va qishda suvlarni to'plash uchun qurilgan.	Daryo -buloq suvning bir tomonga oqishida jilg'alar, irmoqlar bir-biriga qo'shilib katta suv oqimini hosil qilib yuqorida pastga oqadigan yirik suv oqimidir. Daryo insonlar hayotida muhim ahamiyatga ega tabiiy manbadir.

Mavzu yuzasidan o'quvchilarda malaka hosil qilish uchun "Suvsizlik muammosi" mavzusida "Muammo" texnologiyasini bajarishni o'quvchilarga



taqdim etadi.

Mashgulotni o'tkazish tartibi: O'qituvchi o'quvchilarini guruhlarga ajratib, ularni mos o'rinalariga joylashtirgandan so'ng, mashg'ulotni o'tkazish tartib-qoidalari va talablarini tushuntiradi, ya'ni u mashg'ulotning bosqichli bo'lishini va har bir bosqich o'quvchilardan maksimum diqqat-e'tibor talab qilishini, mashg'ulot davomida ular yakka, guruh va jamoa bo'lib ishlashlarini aytadi.

Bunday kayfiyat o'quvchilarga berilgan topshiriqlarni bajarishga tayyor bo'lishlariga yordam beradi va bajarishga qiziqish uyg'otadi.

Misol (namuna):

"Muammo" texnologiyasi

Muammo	Yuzaga kelish sababi	Salbiy oqibatlar	Hal etish yo'llari	Shaxsan men nima qilshim mumkin?
Suvvizlik	Toza ichimlik suvidan tarbibsiz foydalanish, korxonalarning ko'payishi va boshqalar	Suvvizlik Muammosi, kasalliklarning ortishi va boshqalar	Tejamkorlik bilan foydalanish, suvganisbatan befarq bo'lmaslik va boshqalar	Suv j o'mraklarini hadoim yopman, bekorga ifloslantirmayman va boshqalar

O'quvchilarning mustaqil izlanuvchanlik faoliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar kichik guruhlarda hamda individual shaklda olib borilishi lozim. Individual shakl asosan ijodiy topshiriqlarni bajarishga yo'naltiriladi. Har bir o'quvchi o'zining individual (jismoniy, psixik va b.) xususiyatlara egaki, bu uning o'quv faoliyatiga katta ta'sir etadi.

O'qituvchining bu xususiyatlarni o'rganishi va inobatga olishi o'qitish sifatini oshirish hamda har bir o'quvchining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi.

O'qituvchi o'quvchilarning darslardagi ishini, mustaqil ish va topshiriqlarini bajarishini kuzatadi, ularning bilimi, nazorat ishlarini tekshiradi, darsdan tashqari vaqtarda ular bilan ishlaydi. O'quvchining kuchli va ojiz tomonini bilib olishga, uning qiziqishlari, tafakkuri, nutqi, xotirasi, diqqati, xayoliga xos bo'lgan xususiyatlarni o'rganishga, uning xarakteri hamda irodaviy sifatlarini yaxshi bilib olishga harakat qiladi, ularning hayotiy va mehnat tajribalarini, muassasaga kelishdan oldingi faoliyati xususiyatlarni o'rganadi. [3]

Kichik guruhlarda ishslash maxsus bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalar o'rganilishi kerak bo'lganda, shuningdek o'quvchilarda mustaqil ishslash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qo'llaniladi. Bir nechta o'quvchilar birgalikda ishlagan paytda, ularning shaxsiy xususiyatlari va xarakterlari orasida o'zarlo hamkorlik vujudga keladi.

O'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishslash faoliyatlarini rivojlantirishda elektron ta'lim resurslaridan maksimal foydalanish muhim ahamiyatga ega. O'quv va didaktik materiallarga qo'shimcha tarzda tasviriy-vizual vositalar (fotosuratlar, rasmlar, chizmalar, grafiklar) ham kiradi. Ular umumiy va keng qamrovli tasavvurlarni vujudga keltirishni osonlashtiradi. Shuningdek, tasviriy tasavvurlarni shakllantiradigan audio-vizual vositalar texnologik jarayonlar va funksiyalar to'g'risidagi keng qamrovli real tasavvurlarni vujudga keltiradi.

Ushbu vositalardan foydalanishda ularni muayyan maqsad soha va usullarga mos holda tanlash muhim o'rinni tutadi. O'qituvchi o'quv va ko'rsatmali vositalarni ishlata olishni, ulardan maqsadga muvofiq va oqilonan tarzda foydalanishni bilishi kerak. Texnik vositalardan foydalanilayotganda yuzaga keladigan texnik muammolarni mustaqil hal qila olishi kerak.



O'quv materiallari bir paytning o'zida didaktik materiallar sifatida, ya'ni o'qitish va o'rganish uchun ishlataladi. Agar o'quv va didaktik materiallar yetarli bo'lmasa, u holda o'qituvchi tomonidan ularning tanlanishi hamda nazariy yoki amaliy mashg'ulotlar maqsadiga moslashtirilib tayyorlanishi kerak.

Ta'lim oluvchilarning bilim olish, mustaqil ishlash va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning ongli faolligi, mustaqilligi hamda ijodkorligini, o'quv bilish faoliyati natijasining sifatini xarakterlaydi.

Shunday qilib, o'quvchilarga mustaqil bilish, fikrlash va ijodiy izlanishga majbur qiladigan, muammoli hayotiy dalillarga asoslanadigan vaziyatlari topshiriqlarni ko'plab berish maqsadga muvofiqidir. O'quvchilar esa bu topshiriqlarni ijodiy fikrlash va mustaqil ishslash orqali bajarishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Adizov B. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. T.: 2003 yil.
2. Muslimov N va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. T.: 2015 yil.
3. G'oziyev E. "Mustaqil fikrlashning taraqqiyotga ta'siri". Ma'rifat gazetasi. 2000 yil.
4. www.pedagog.uz